

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
«O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY  
ASOSLARI VA MUAMMOLARI» ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

**Qo‘lyozma huquqida  
UDK: 336.2.131.5**

**ISAEV ASLIDDIN IKROM O‘G‘LI**

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA SOLIQ IMTIYOZLARI  
BERISHNING SAMARADORLIGI MASALALARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

**D I S S E R T A T S I Y A**

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor U.V.Gafurov**

**Toshkent – 2025**

## M U N D A R I J A

|                 |                                                                                                                        |            |
|-----------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
|                 | <b>KIRISH.....</b>                                                                                                     | <b>3</b>   |
| <b>I BOB.</b>   | <b>SOLIQ IMTIYOZLARINING NAZARIY ASOSLARI VA UNING IQTISODIYOTGA FISKAL TA’SIRI.....</b>                               | <b>12</b>  |
| 1.1-§.          | Soliq imtiyozlarining nazariy asoslari va uning soliq tizimidagi o‘rni.....                                            | 12         |
| 1.2-§.          | O‘zbekistonda tadbirkorlik sub’ektlariga soliq imtiyozlarini qo‘llashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....            | 24         |
| 1.3-§.          | Tadbirkorlik sub’ektlariga soliq imtiyozlarini berishning xorij amaliyoti.....                                         | 34         |
|                 | Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....                                                                                      | 45         |
| <b>II BOB.</b>  | <b>TADBIRKORLIK SUB’EKTLARIDA SOLIQ IMTIYOZLARINING JORIY QILINISHI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH....</b> | <b>47</b>  |
| 2.1-§.          | Tadbirkorlik sub’ektlarida soliq imtiyozlaridan foydalanishning joriy holati tahlili.....                              | 47         |
| 2.2-§.          | Soliq imtiyozlarini tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatiga ta’sirini tarmoqlar bo‘yicha tahlili.....                     | 62         |
| 2.3-§.          | Soliq imtiyozlari samaradorligi va ularning iqtisodiy o‘rinishni rag‘batlantirishga ta’sirini baholash.....            | 73         |
|                 | Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....                                                                                      | 86         |
| <b>III BOB.</b> | <b>TADBIRKORLIK SUB’EKTLARIDA SOLIQ IMTIYOZLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI.....</b>                         | <b>88</b>  |
| 3.1-§.          | Soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini baholash metodlari.....                                                | 88         |
| 3.2-§.          | Tarmoqlarda tadbirkorlik sub’ektlarini maqsadli rag‘batlantirishni takomillashtirish.....                              | 98         |
| 3.3-§.          | Soliq imtiyozlarining samaradorligini oshirishda monitoring va baholash tizimini takomillashtirish.....                | 109        |
|                 | Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....                                                                                      | 120        |
|                 | <b>XULOSA.....</b>                                                                                                     | <b>122</b> |
|                 | <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>                                                                         | <b>125</b> |
|                 | <b>ILOVALAR.....</b>                                                                                                   | <b>141</b> |

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon mamlakatlarida soliq imtiyozlari ko‘p yillar davomida investitsiyalarni rag‘batlantirishning muhim vositalari hisoblanib kelgan. “2000 yillarning boshidan boshlab, soliq imtiyozlarining samaradorligi shubha ostiga qo‘yilgan. Investitsiya qonunchiligi va siyosat asoslari uchun mas’ul bo‘lganlar soliq imtiyozlarini boshqarishni kuchaytirish, masalan, rag‘batlantirish muddatini qisqartirish yoki investorlardan qo‘shimcha ishlash shartlariga javob berishni talab qilish orqali javob berishdi. Bu qimmatli va foydali tadbir bo‘lsada, soliq imtiyozlarining amaldagi foydaliligi va samaradorligi hukumatlar tomonidan kamroq o‘rganilgan”<sup>1</sup>. Tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari berish samaradorligini o‘rganish raqobat muhitini yaxshilash, sarmoyalarni jalb qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish va byudjet daromadlarini muvozanatlashda muhim ekanligi sohani o‘rganishga zaruratni oshirmoqda.

Xalqaro amaliyotda soliq imtiyozlari samaradorligi bo‘yicha keng ko‘lamdagi ilmiy tahlillarga asoslangan tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda moliyaviy oqimlar va xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda imtiyozlarning roli, ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishni baholash, shu bilan birga soliq imtiyozlaridan suiiste’mol qilish holatlarini oldini olish, davlat byudjeti uchun soliq tushumlarining muvozanatini ta’minlash nazariy va amaliy jihatdan chuqur qo‘llanilayotgan usullar bilan o‘rganilayapti. Shu jumladan, ilmiy tadqiqotchilar ko‘p parametrlı iqtisodiy modellashtirish, iqtisodiy samaradorlikni baholashda statistik usullar hamda korelyatsiya-regressiya tahlillaridan foydalanib, imtiyozlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini aniq belgilash maqsadida keng ko‘lamdagi ma’lumotlar bazasini tahlil qilishmoqda. Sohada ilg‘or tajribalarni taqqoslash va innovatsion metodologiyalar ishlab chiqish orqali baraqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash g‘oyat muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> Revisiting Tax Incentives as an Investment Promotion Tool Q&A for investment policy-makers Kudzai Mataba, Thomas Lassourd, Alexandra Readhead, Suzy Nikiéma October 2023. [chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://www.iisd.org/system/files/2023-10/revisiting-tax-incentives-investment-promotion-tool-policy-makers.pdf](https://www.iisd.org/system/files/2023-10/revisiting-tax-incentives-investment-promotion-tool-policy-makers.pdf)

O‘zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish hamda chet el sarmoyalarini jalb etishda samarali soliq imtiyozlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, “So‘nggi yillarda iqtisodiyot tarmoqlariga turtki berish uchun ilgari tariximizda bo‘lmagan imtiyozlarni joriy etishga majbur bo‘ldik. Bugun ulardan natija, saboq, tajriba qanday bo‘ldi, degan savolga javob topish kerak. Byudjetdan ajratilgan har bir so‘mning hisob-kitobini joyiga qo‘yish, imtiyozlarning samaradorligini oshirish”<sup>2</sup> zarurligi ta’kidlanib, bu boradagi keng qamrovli vazifalar belgilab berildi. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda tadbirkorlik subyektlari tomonidan kambag‘al oila a’zolarini ish bilan ta’minlaganda ushbu xodimlarga to‘lanadigan ish haqi bo‘yicha ijtimoiy soliqni belgilash, qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo‘yicha o‘rnatiladigan qurilmalarni mablag‘ bilan ta’minlashni yengillashtirish maqsadida yuridik shaxslarni ushbu qurilmalar uchun mol-mulk va yer solig‘idan ozod etish, eksport qiluvchi korxonalar mahsulotlari (xizmatlari) raqobatbardoshligini kuchaytirish va ularning tashqi bozorlarda faol ishtirokini rag‘batlantirish uchun eksportdan olinadigan daromadlarini nol darajali foiz miqdoridagi stavkaga tushirish, soliq imtiyozlari berish jarayonini yana-da tizimli va maqsadli tashkil etish maqsadida tadbirkorlik subyektlarining “barqarorlik reytingi” indikatorlarini hisobga olish, mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda imtiyozlarning samaradorligini ilmiy asoslash va suiiste’mol holatlarini oldini olish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-apreldagi PF-67-son “Ishlab chiqarish, eksport va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish, savdo va sanoat siyosati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 9-yanvardagi PF-8-son “Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirish hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-son “Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma’muriyatchiligini yana-

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezident Sh.Mirziyoyev huzurida iqtisodiyot tarmoqlariga yo‘naltirilgan imtiyozlar samaradorligi tahlili bo‘yicha yig‘ilish. 01.11.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5658>